

ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

MAXSUS SON (2021-yil, MAY)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

МУНДАРИЖА

МУСИҚА	5
Бахром МАДРИМОВ. Из истории макомов	5
Ismatilla QUDRATOV, Azamat RAJABOV. Talabalarni dirijorlik faoliyatiga tayyorlash tizimi va uning samaradorligi.....	8
Davron RUZIYEV. Ansambl ijrochilarida obrazli musiqiy tafakkurni shakllantirish	11
Rajabov TUXTASIN. Uzluksez ta'lim tizimida buxoro bolalar folklor kushiklarini urgatish jarayonining samaradorligi	16
Ulug'bek MIRSHAYEV. O'quvchi-yoshlarni musiqa orqali komil inson qilib tarbiyalash.....	20
Shoira NOROVA. O'zbek an'anaviy qo'shiqchiligida ustoz-shogird ijro yo'llari	23
Ibrogim KAYUMOV. San'atning turlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati	25
Farrux NURIJLAEV, Nigora NURIJLAEVA. Buxoro folklor kushiklarining uziga xos ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati.....	28
Ilhom QUSHAEV, Isлом AXTAMOV. Musikey pedagogik ta'limda an'anaviy musikiy merosning urni	32
To'liqjon MUXAMEDOV. Umumta'lim maktablarining musiqa to'garaklarida qo'shiq o'rgatish usullari	35
O'g'iloy RAMAZONOVA. An'anaviy xonandalik va hofizlik san'ati	38
Malohat RAHMATOVA. Umumta'lim maktablarida xalq musiqa ijodiyoti ansamblini tashkil etish yo'llari.....	41
Sherzod SHAMSIEV. Maktab o'quvchilarida musiqa ijodkorlik malakasini o'stirish yo'llari	44
Komil XOLIQOV. Musiqa ta'limida ustoz-shogird munosabati.....	46
Zarnigor ALAYEVA. Xalq qo'shiqlari asosida boshlangich sinf o'quvchilarining nutqiy malakasini o'stirish	49
Sadritdin GULOV. Umumta'lim maktablarida musiqa to'garagini tashkil etish metodlari	51
O'ktam IBODOV. O'quvchilarning musiqiy badiiy didini o'stirishga qo'yiladigan talablar	53
Ravshan RAXIMOV. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoni	55
Nurbek RAHMATOV, Vazira ATAeva. Fortepiano fanini o'qitishda innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar.....	58
Maxsuda AXMEDOVA. Uquvchilarda uzbek musiqa folklor haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning psixologik asoslari.....	61
Maxsuda AXMEDOVA. Uquvchilarda uzbek musiqa folklori haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik muammolari	64
TASVIRIY SAN'AT.....	66
Nodir YDGAROV. Bujajak chizmachilik uqituvchilarining kasbiy kunikmalarini kompyuter animatsion modellar vositasida shakllantirish muammolari	66
Tolib SOBIROV. Tasviriy san'atni o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning maqsad va vazifalari	69
Dilshod MAMATOV. Umumiy urta ta'lim maktab chizmachilik darslarida kompyuter grafikasidan foydalanish metodikasi	72
Dilshod MAMATOV, Sevara NURMURODOVA. Oliy ta'lim tizimida talabalarning tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ta'lim jarayonini tashkil qilish muammolari	75
Dilshod MAMATOV, Zarnigor RO'ZIMURODOVA. Chizmachilik darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish muammolari	77
Suxrob ABDULLAEV. Kreativniy podhod k osnove risunka budushchikh spetsialistov napravleniya obrazovaniya izobrazitel'nogo iskusstva i inzhenernoy grafiki.....	81
Barot AZIMOV. Tasviriy san'at ta'limida pedagogik texnologiyalar	84
Muzaffar AVLIYAKULOV. Talabalarning bilimlarini tezkor baholashda individual test topshiriqlaridan foydalanish, ularni nazorat qilish va baholash.....	88
Shodijon BAKAYEV, Sherzjon SHOKIROV. Xalq amaliy bezak san'ati fanini o'qitish orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish	91
Gulnora XAKIMOVA. Maktablarda tasviriy san'at darslarini tashkil etishda uquvchilarning kreativlik ko'rsatkichlarini rivojlantirish	95
Muxayё AZIMOVA. Buxoro davlat universiteti tuzilmasidagi "Qatagon kurbonlari hotirasi" muzeyi faoliyati va universitet ravnaqi iylida kushgan hissasi	101
Muhayyo AZIMOVA. Tasviriy san'at mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllaridan biri sifatida treninglardan foydalanish	105

Sanjar AZIMOV

Buxoro davlat universiteti
Tasviriy san’at va muxandislik
grafikasi kafedrasida dotsenti**TASVIRIY SAN’AT DARSLARINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL
USULLARNI QO’LLASH****Аннотация**

Dars samaradorligini oshirishda o’quv vositalarining ahamiyati judda kattadir. Bularga darsliklar, o’quv qo’llanmalari, radio eshittirishlari, televideniye ko’rsatuvlari, gazeta va jurnallar, elektron darsliklar, kodoskop, proeksion rangli rasmlar, slaydlar, kompyuterlar, hamda o’qitishning barcha zamonaviy texnik vositalari, tajribalar o’tkazish uchun jihozlar, kundalik kuzatish daftari, maktab o’quv-tajriba maydonchasi kiradi. O’qituvchi fanning istiqbollari haqida umumiy tasavvurga ega bo’lmay turib, chuqur asoslangan dars o’tkazishiga umid qilish qiyin. O’quv fanidagi g’oyalari va mavzularning izchilligi va o’zaro bog’liqligini tasavvur etgan holda o’qituvchi dars mashg’uloti jarayonida dars mazmunidan tashqari darsda foydalaniladigan qo’shimcha manbalar (she’rlar, maqollar, matallar, topishmoqlar, yozuvchilarning asarlaridan parchalar, hayot bilan bog’liqlik, fanlararo bog’lanishlar)dan umumli foydalanishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Darslar samaradorligi o’qitish usullari to’g’ri tanlanganida va ularni ko’rgazmali qurollar, o’quv vositalari bilan uyg’unlashtirilganda sezilarli darajada ortadi. O’qitishning zamonaviy texnika vositalari va axborot texnologiyalaridan mohirona foydalanish dars samaradorligini ta’minlaydi va o’quv mehnati intensivligini hamda o’quv jarayoni texnik madaniyatini oshiradi.

Shu o’rinda umumta’lim maktablarida tasviriy san’at darslarida o’quvchilarning badiiy tafakkurini yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirligini o’stirish, tasviriy savodxonlik sifatlarini rivojlantirish, individual yondashuv orqali didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish, mazkur jarayonga kompetent yondashuvni tatbiq etish, darslarda o’quvchilarning ijodkorligini rivojlantirishning me’yoriy asoslari yaratilishi zarur.

Annotation

Teaching aids play an important role in improving the effectiveness of the lessons. These include textbooks, manuals, radio broadcasts, television programs, newspapers and magazines, electronic textbooks, overhead projectors, color projectors, slides, computers, as well as all modern teaching aids, experimental equipment, a diary, a school learning area. It is difficult to expect a teacher to teach a well-grounded lesson without a general idea of the future of the science. Assuming the consistency and interdependence of ideas and topics in the subject, the teacher uses additional resources (poems, proverbs, sayings, riddles, works of writers) used in the lesson in addition to the content of the lesson. fragments, connection with life, interdisciplinary connections). The effectiveness of the lessons is significantly increased when the teaching methods are chosen correctly and combined with visual aids and teaching aids. The skillful use of modern teaching aids and information technology ensures the effectiveness of the lesson and increases the intensity of educational work and the technical culture of the educational process.

In this regard, the development of artistic thinking, aesthetic and emotional sensitivity of students in the visual arts classes in secondary schools, the development of visual literacy, individual development through didactic support, the introduction of a competent approach to this process, it is necessary to create a normative basis for the development of students' creativity in the classroom.

Tasviriy san’at darslarining maqsadini aniq va puxta belgilanishi yaxlit pedagogik faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlashga poydevor yaratadi, tasviriy san’at darslarining maqsadi DTS, o’quv rejasi va dasturi, shuningdek, darslik va qo’llanmalar mazmunida o’z ifodasini topgan ma’lum mavzular hamda o’quv fanining o’ziga xos jihatlari, o’quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ehtiyoj, qiziqishlari, pedagoglarning bilimi, kasb mahorati, ijodiy layoqati pedagogik vaziyatlarni inobatga olish asosida belgilanadi.

Pedagogik faoliyatning maqsadi aniq, puxta, shuningdek, tashxislangan bo’lishi maqsadga muvofiqdir. Bu quyidagi holatlarni vujudga keltiradi:

a) shaxsning ma’naviy - axloqiy sifatleri va aqliy salohiyati shunday aniq va ravshan ifodalanadiki, natijada hosil bo’ladigan intellektual - axloqiy sifatlarini o’quvchi yoki o’quvchining boshqa xislatlaridan farqlay olish imkoniyati yaratiladi;

b) shaxsning ma’naviy - axloqiy sifatleri va aqliy salohiyatining shakllanadigan darajasini haqqoniy nazorat qilishga yo’naltirilgan aniq usullarning mavjudligi ta’minlanadi;

v) shaxsning sifatlarini aniqlashga yo’naltirilgan nazorat unda hosil bo’lgan aqliy - axloqiy sifatlar darajasini belgilabgina qolmay, balki pedagogik faoliyat samaradorligini ham aniqlaydi;

g) tashxislash maqsadi doirasida shaxsning aqliy - axloqiy sifatleri darajasini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi hamda ularga tayangan holda faoliyat olib borish shaxs bilim, ko'nikma va malakalarining sifatini baholovchi ko'rsatgichlar mavjud bo'ladi. O'zbekistonda milliy amaliy san'at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 10 iyul 346 sonli qarorida 1997 yilgi "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori alohida ahamiyat kasb etdi. Ana shu qaror asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish Markazi tashkil etilib, uning qoshida "Hunarmand" uyushmasi faoliyat ko'rsata boshladi. Bu uyushma o'z saflariga minglab tajribali, shuningdek, yosh ustalarni birlashtirdi. Ularning ijodiy ishlari uchun har tomonlama shart sharoitlar yaratib berilmoqda, ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Uyushmaning deyarli barcha viloyatlarda bo'linmalari ochilgan bo'lib, u yerdagi ustalar mahalliy amaliy san'atni milliy badiiy an'alarini rivojlantirib yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar. Hozirgi zamon xalq ustalaridan A. Akbarov, A. Abdullayev, A Umarov, S. Rahmatullayev, A. Karimov, M. Murodov, B. Rahmonberdiyev, N. Oblaqulov va boshqa ustalar xorijiy mamalakatlarda o'tkazilgan qator ko'rgazmalarda o'z asarlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, Fransiyaning Parij shahrida, Olmoniyaning Berlin shahrida, Malaziyaning Kuala Lumpur shahrida, Yaponiyaning Tokio shahrida, Hindistonning Dehli shahrida, Moskva va Olmaota shaharlarida o'tkazilgan ko'rgazmalar shular jumlasidandir.

Tasviriy san'at darslarida, dars qahramoni portreti asarlaridan namunalar, hayoti va ijodi bilan bog'liq krossvordlar, guldasta va boshqa mukofotlar bilan bezatiladi.

«Sinov darslar»i odatda bob yoki bo'lim yakunida, o'quv choragi yoki o'quv yili yakunida barcha umumta'lim fanlaridan tashkil etib o'tkazilishi mumkin.

Bu darsning o'ziga xos xususiyati shundaki, u pedagogik texnologiya elementlariga asoslangan turli ko'rinishlarda tashkil etilishi mumkin. Uning variantlarini tanlash har bir fan mutaxassisining mahoratiga, ilmiy salohiyati va eng asosiysi, uning pedagogik tajribasiga bog'liq. Biz quyida hamma o'quv fanlariga mos tushadigan sinov darsi variantini keltirmoqchimiz:

1. O'quvchi va ikki o'quvchidan iborat sinov komissiyasi tuziladi. O'qituvchi komissiyasi raisi o'quvchilar a'zo qilib tayinlanadilar.

2. Sinovning birinchi bosqichi og'zaki savol - javob bo'lib, 20 - 30 ta mavzuga doir savollar doskasiga yozib qo'yiladi. Sinovga chiqarilgan har o'quvchi kimida 2 ta savolga javob berishi lozim. Undan o'tganlar sinovning ikkinchi bosqichiga ishtirok etish xuquqini qo'lga kiritadi.

3. Sinovning ikkinchi bosqichi o'tilgan bob yoki bo'lim mavzulari asosida tuzilgan 15 ta savoldan iborat test sinovi bo'lib, test topshiriqlari varaqalari o'quvchilar soniga mos ravishda ko'paytiriladi.

4. Dars yakunida og'zaki savol - javoblar xamda test topshiriqlari yakuni bo'yicha baholarni sinov komissiyasi e'lon qiladi.

«Zakovat» bu dars orqali o'quvchilarni intellektual rivojlantirish ancha samarali hisoblanadi. Unda tasviriy san'at matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya, geografiya, til va boshqa barcha o'quv fanlarida samarali foydalanish mumkin. Odatda, ma'lum fanning muayyan bob yoki bo'limi yakunlangach bunday darslarni tashkil etib o'tkazish ancha samarali hisoblanadi. Darsni o'tkazish tartibi quyidagicha:

I. Sinfidagi bilimlari, zukko o'quvchilardan 6 nafari tanlanib «zakovat» klubi tashkil etiladi.

II. Boshlovchi (a'lochi o'quvchi yoki fan o'qituvchisi) 10 kun oldin sinfdagi har bir o'quvchidan dars mavzulariga mos 2 tadan qiziqarli savol - topshiriqlari tuzdirib oladi va topshiriqlarini to'plashni tashkil etadi. Topshiriqlar mazmunining maxfiyligi ta'minlanishi zarur. Tushgan savollardan 11 tasi saralanib tanlanadi.

III. «Zakovat» darsida boshlovchining yordamchisi konvertlarni raqamlab chiqadi. Ishtirokchilar navbat bilan konvertlarni tortib 1 daqiqa ichida savollarga umumguruhda (6 kishi) nomidan yakuniy javob beradilar.

Bu o'yinda komanda a'zolari yoki tomoshabinlar g'olib bo'lishi mumkin.

3 kishidan iborat hakamlar xay'ati, berilgan savollar hamda javoblarni baholab beradilar. Eng yaxshi savol yoki eng zukko «zakovat» klubi ishtirokchisi qimmatbaho kitoblar bilan takdirlanib boriladi.

«Ijodiy darslar» barcha umum ta'lim tasviriy san'at fanidan o'tkazilishi mumkin. Ilg'or tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday darslarni ta'lim tayyorgarligi ancha yuqori bo'lgan sinf o'quvchilari ishtirokida o'tkazish yaxshi samara beradi. «Ijodiy darslar»ni tashkil etish metodikasi quyidagicha:

Sinf o'quvchilari ixtiyoriy ravishda 5 ta guruhga ajratiladi.

1 - 2 guruhlarga yangi dars mavzusi bo'yicha rasm ishlash yoki krossvordlar tuzish topshiriladi. Bunga 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

3 - 4 guruhlarga dars mavzusi bo'yicha «Evrika» - mantiqiy - didaktik savollar berilib shu asosda o'yin olib boriladi. Unda har o'quvchiga 2 tadan savol -topshiriqlar beriladi. Javoblar uchun 10 daqiqa vaqt ajratiladi.

5 - guruh «Senaristlar» guruhi bo'lib, ular dars mavzusiga bag'ishlab, xujjatli, multfilm shakllaridan birini tanlab senariy yozadilar. Senariy usuli xayviy, yumoristik jiddiy, drama shakllarida bo'lishi mumkin.

3 kishidan iborat hakamlar xay'ati ijodiy ishlar ko'rigini o'tkazadi va natijalarga ball qo'yadi. Hakamlar ishining yakuni uchun 5 - 10 daqiqa kifoya. Bu darsda musiqali tanaffus bo'lishi mumkin.

Bunda noan'anaviy darsni barcha o'quv fanlarida tashkil etib o'tkazish mumkin. O'qituvchi ma'lum bir bo'limni o'rganishdan oldin shu bo'lim mavzulari yuzasidan 15 - 20 ta «ijodiy ish» chizilgan mavzusini

ajratadi va uni o'quvchilarga tarqatadi. Eng a'lochi o'quvchilardan «ilmiy rahbar» tayinlaydi. Ijodiy ish olgan o'quvchilarga «ilmiy tadqiqotchi» nomi beriladi. Har bir ijodiy ishga 1 nafar «opponent» tayinlanadi. Ijodiy ish himoyasi umumlashtiruvchi takrorlash darsida amalga oshiriladi. O'qituvchi «ilmiy kengash raisi» vazifasini bajaradi. Har bir ijodiy ishni himoya qiluvchi o'quvchiga tanlangan mavzusi bo'yicha ma'ruza uchun 5 daqiqa vaqt beriladi. «Opponent» ijodiy ishni bajarishga yo'l qo'yilgan kamchiliklar, ularni bartaraf etish haqidagi mulohazalarni 2 daqiqada bayon etadi. Ilmiy rahbar mazkur ish yuzasidan fikrini bayon etib o'z bahosini e'lon qiladi. Ijodiy ishlar muhokamasi tugagach, 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi, byulletenlar tarqatib yopiq ovoza ilmiy kengash a'zolarining ijodiy ishga qo'ygan baholarini aniqlaydi. Kengash raisi dars so'ngida ijodiy ishlarga qo'yilgan baholarni «ilmiy kengash» nomidan e'lon qiladi.

Sinf o'quvchilariga darsning boshida 2 - 30 minut mavzudagi asosiy muammo haqida yo'naltiruvchi topshiriqlar beriladi. So'ngra sinf 3 - 4 o'quvchidan iborat kichik guruhlariga ajratiladi. Bu guruhlarining sardorlari bo'ladi. O'quvchi kichik guruhlarda ishlenganda, darsda faol ishtirok etish xuquqiga, boshlovchi rolda bo'lishiga, bir - biridan o'rganishga va turli nuqtai nazarni qadrlashga o'rganadi. Usul quyidagi tartibda qo'llaniladi.

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Muammodan bir - biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilaniladi.
2. Kerakli asos yaratiladi. O'quvchilar mazkur muammo haqida ma'lum bir tushunchaga ega bo'lishlari kerak.
3. Guruhlarga 3 - 4 tadan o'quvchilar birlashtiriladi. Guruh rahbarlari tayinlanadi.
4. O'quvchi tomonidan mazkur muammo bo'yicha o'quvchilarga aniq ko'rsatmalar beriladi.
5. O'quvchilarning ishi qo'llab - quvvatlab va yo'naltirib turiladi.
6. Mazkur masala yuzasidan har bir guruh rahbari o'z guruhdoshlari nomidan chiqib o'z nuqtai nazarini bayon etadi. 8 - 10 ta guruh rahbari chiqib o'z nuqtai nazarini himoya qiladi. O'qituvchi yakuniy xulosalaydi.

Xayoliy sayohat darsi ta'limning bu interfaol usuli tasviriy san'at tarixi, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlardan foydalanishi mumkin. Tarixdan biror davirdagi ma'lum bir davlat tarixiga oid, geografidan biror bir kishlok, materik, orol, davlat bo'ylab xayoliy sayohat kilib uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi uzi mustaqil (ilxom bilan) usha joyni chizish yoki yozma tasvirlash kerak. Kimning chizmasi yoki yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u golib hisoblanadi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, pedagogik texnologiyalarning markazida o'qituvchi hamda o'quvchi o'rtasidagi muloqotga asoslangan faoliyat turadi. An'anaviy ta'lim texnologiyasidan farqli ravishda ushbu faoliyat jarayonida o'quvchi yetakchilik rolini bajaradi. O'quvchining o'quv - bilim jarayonidagi yetakchiligi quyidagi pedagogik vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi:

- 1) o'quvchida nazariy bilimlar hamda faoliyatni o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyoj hamda rag'batni qaror toptirish;
- 2) nazariy bilimlar hamda faoliyatni o'zlashtirishga nisbatan ongli yondashuvni vujudga keltirish;
- 3) ularda mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish;
- 4) tasviriy san'at o'quvchilarining faolligini ta'minlash;
- 5) tasviriy san'at o'quvchilarida mustaqil fikr yuritish, nazariy va amaliy bilimlarning mohiyatini tahlil etish, anglash, ular xususida ma'lum xulosalar chiqarish, umumlashtirish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish borasidagi ko'nikmalarni shakllantirish hamda takomillashtirish;
- 6) o'z faoliyatini nazorat qilish va baholash layoqatini qaror toptirish.

Pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotida qo'llash bilan birga ularning samaradorligini ham baholashga alohida ahamiyat berish kerak.

Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash mezonlari pedagogik faoliyatni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad va uning natijalanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyomammedov B. Yangi pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. –T.: Chinoz ENK, 2002.
2. Begimkulov U.S. Pedagogik ta'limda zamonaviy texnologiyalar //J. Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2005.
3. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.
4. Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. Tasviriy san'at. – T.: ILM ZIYO, 2010.
5. S.F. Abdirasilov “Tasviriy san'at o'qitish metodikasi” Toshkent - 2012.
6. S.F. Abdirasilov, N. Tolipov “Tasviriy san'at o'qitish metodikasi” Toshkent-2007.
7. Ro'zimov S.K. Kompyuter savodxonligi. –T.: Fan, 2006.
8. Hamdamov R., Begimkulov U., Tayloqov N. Ta'limda axborot texnologiyalari. 1-qism. – T.: O'zME davlat ilmiy nashriyoti, 2010.

